



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH

**Azimjonova Gulshanoy Botirjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha talim yo`nalishi 2-kurs talabasi


<https://doi.org/10.5281/zenodo.8141347>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish, rahbarlik qilish va MTT direktori faoliyati va vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, direktor, boshqaruv faoliyati, rahbar, shaxs, kvartal, ta'lim, tarbiya, metod, pedagog, nazorat.


Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) rahbarlarining asosiy funktsiyasi, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda, ta'lim muassasasi hayotiy faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqaruv yo'nalishidagi masalalarning ijobiy yechimini topish, hamda uni hal etish hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqaruv faoliyati yoki ixtiyoriy faoliyat inson-inson munosabati, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar tarzida, ya'ni shaxsning ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o'zaro aloqalar asnosida tahlil qilinadi va o'rganiladi. Faoliyat maqsadi ob'ektiv bo'lib, o'z o'rnida, shaxs tomonidan belgilanadi va u shaxs faoliyatining asosiy komponenti hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat sub'ektni ma'lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsadi ifodalanadi. Ma'lumki, boshqaruv faoliyati sub'ektlar tomonidan lavozimi yo'nalishidagi funktsiyalarni bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti-harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlarining tuzilmasi boshqaruv predmetlari orqali belgilanadi. Demak, boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda, harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar, o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan belgilangan maqsad o'zgarmasa-da, maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda harakatlar tarkibi o'zgarib boradi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo'nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat MTT rahbarlari boshqaruv faoliyatlarining ma'lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, boshqaruv funktsiyalarining mazmun-mohiyati hamda vazifalari inobatga olinadi. Umumiy





maqsadlarga erishishda, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish izchilligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlariga asosan amalga oshiriladi. Ob'ektiv boshqaruv faoliyati faqatgina maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning to'liq to'plami yoki harakatlar zanjiri shaklida mavjud bo'ladi. Mavjud bo'lgan mazkur zanjir boshqaruv algoritmini ifodalaydi. Boshqaruv faoliyati algoritmi – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari boshqaruv faoliyatlarining izchilligi bo'lib, u yettita bosqich: pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash; qayta ishlash va ob'ektiv baholash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan anglash va rejalashtirish; kadrlar tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish; jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxislash; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish; maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat. Mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma'muriy, ijtimoiy psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash asnosida boshqaruv funktsiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari boshqaruv faoliyatlari davomida o'zlari rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasalarining faoliyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonining holatlari, xodimlarning o'z vazifalariga bo'lgan munosabatlari, o'zaro munosabatlar, ya'ni tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarning munosabatlari, shuningdek, umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami hamda samaradorligi, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, dunyoqarashining kengayib borishi shuningdek, tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi uchun zaruriy axborotlar to'plashlari lozim. To'plangan ishonchli axborotlar tahlil qilinishi va umumiy holatni o'rganilishi boshqaruv faoliyatini o'zgartirish, takomillashtirishga, ya'ni MTT faoliyatlari samaradorligini oshirish strategiyalarini belgilab olishga xizmat qiladi. Axborotlarga asoslangan holda, MTT rahbarlarida o'z faoliyatlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va shunga asosan uni takomillashtirish yo'nalishlari va tashkilot faoliyatini yaxshilash uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilanadi. Belgilangan vazifalarni tarbiyachilarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek, kasbiy tajribalariga ko'ra taqsimlash amalga oshiriladi, ya'ni, zarur hollarda, tashkilotlarning faoliyatlarini, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar (pedagog va psixologlar) jalb etiladi, shu asosda,






jamo'a a'zolarining faoliyatlari muvofiqlashtiriladi. Mazkur jarayonlarda amalga oshirilgan ishlarning natijalariga va yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish imkoniyatlari aniqlanib, belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida qarorlar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish direktor zimmasiga yuklatiladi. Direktor maktabgacha ta'lim muassasasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Rahbarlik mavqeyi direktorni o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv me'yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklarni darhol bartaraf qilish choralari ko'rishini lozim. Direktor bolalar hayotini saqlash, muhofaza qilish uchun bolalar muassasasida to'g'ri kun tartibi, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyena qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi, yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazadi. Qishqirg'ichga vitaminga boy oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlaydi. MTT xodimlarini o'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlaydi. Ish yuritishni qattiq nazorat qiladi. Faol xodimlarni rag'batlantiradi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan joriy va kapital ta'mirga rahbarlik qiladi. Xo'jalik mudiri, ombor mudiri, kir yuvuvchi, bog'bon, duradgor, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik, haydovchi bilan yakkama-yakka suhbat o'tkazadi. Ularning ishlari ustidan qat'iy nazorat tashkil etadi. Bundan tashqari tashkiliy pedagogik jarayonlarga ham o'zi boshchilik qiladi.

Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi:

- 1) bayram ertaliklarini o'tkazish va rahbarlik;
- 2) ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa bo'lib kuzatish va tahlil qilish. Masalan, ochiq mashg'ulot, sayrlarni kuzatish;
- 3) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashtirish, yil tarbiyachisi, san'at





bayrami, sport bayramlarini o'tkazish. Direktorning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) har bir guruhda ta'lim-tarbiyaviy reja asosidagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish: guruhning ta'lim tarbiyaviy ish rejasi, tashxis daftari, bular o'tkazilgan ishlarning hisobotini nazorat qiladi;

b) guruhning jihozlanishini nazorat qilish, bunda guruhlarga qarab burchaklar sonini takomillashib boradi; Direktor kvartalda bir marta umumiy ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majlisni ota-onalar qo'mitasining raisi olib boradi yoki yordam beradi. Direktor 1 haftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo, kamchiliklar, bolalar tarbiyasiga oid muammolar hal etiladi.

Direktorning jamoatchilik va mahalla qo'mitasi bilan ish usullari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun anjumanlar o'tkazish.

2. Ota-onalar universitetlari tashkil qilish. Unda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, maktabgacha ta'lim bo'limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar universitetining asosiy maqsadi oila va bolalar tarbiyasi masalalarini o'rganish va kamchiliklarni, muammolarni hal etishdan iborat. Direktor maktab bilan aloqa o'rnatib 1 yilga mo'ljallangan reja asosida ish ko'radi. Bunda MTTning asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshiriladigan tadbiriy choralar, bolani maktab ta'limiga tayyorlash, lotin alifbosini o'rgatish ishlari amalga oshiriladi. Bunda MTT direktori va maktab direktorining vazifalari belgilanadi. Direktor bog'chani kerakli texnikaviy va xo'jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turishi, binoni jihozlari bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlashi, binoni o'z vaqtida ta'mirlashi va o'quv-ko'rgazmali qurollar bilan to'ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dasturiy-mctodik hujjatlarda tavsiya etilgan (ularni fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalash maqsadida) bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlashi, bolalar maydonchasi va yer uchastkasini to'g'ri, rejali jihozlashi, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishlash stajiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, shifokor bilan birgalikda tibbiy ishlarini nazorat qilishi va bolalarni tizimli tibbiy ko'rikdan o'tkazishi kerak. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori amaldagi qonunchilik doirasida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik xodimlari va ma'muriyatini ularning kasb-kor va mansab faoliyatlariga asossiz aralashuvga chek qo'yuvchi zarur choralar ko'radi, maktabgacha ta'lim tashkiloti





jamoasiga nisbatan ma'muriy-buyruqbozlik urinishlariga, uning mustaqilligini cheklovchi buyruqlarga chek qo'yadi, shu masalalar bo'yicha tegishli organlarga murojaat qiladi. Direktor ishonch qog'ozisiz maktabgacha ta'lim tashkiloti nomidan harakat qiladi, barcha shirkat va jamoat korxonalari, muassasalar va tashkilotlarda uning manfaatini himoya qiladi, kreditlar tarqatadi; shartnomalar tuzadi, ishonch qog'ozlarini beradi, banklarda hisob va boshqa schyotlarini ochadi, u maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun zarur bo'lgan jihozlar va boshqa moddiy resurslarni xohlagan korxonalardan, tashkilotlardan, shirkatlardan va ayrim shaxslardan naqd pulga yoki pul o'tkazish yo'li bilan ijaraga olish va buyurtma berish huquqiga ega. Direktor maktabgacha ta'lim tashkiloti huquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko'rsatma beradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha xodimlari uchun majburiydir.

Tarbiyachi-metodist, katta meditsina hamshirasi, xo'jalik mudirining o'z huquqlari doirasida bergan ko'rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir. Direktorning boshqarish va nazorat qilishdagi barcha faoliyatlari o'z navbatida tegishli bo'lim tashkilotlari tomonidan ham boshqarib boriladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkimki, tashkilot rahbari MTT ni boshqarishda rahbarlik qiladigan va barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan shaxs hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.D. Ablaqulov. Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment. O'quvslubiy majmua. T.:2020
2. Jurayeva D.R. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Uslubiy qo'llanma - T.: 2015.
3. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'Latova, M.M. Pirmuhamedova, R.T. Akbarova I, M.Sh. Nurmatova, N.M. Qayumova, N.N. Jamilova, X. Sariboyev, L.A. Kulay. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv Qo'llanma -T.:2011
4. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma- T.: 320 b.

